

ABITURIENT VASVASASI

Bugun katta hayot ostonasidagi ilk sinov. Barcha talabalik baxtini ko'zlab kelgan yoshlar qatori universitet ostonasiga qadam qo'ydik. O'rtda qolgan zaxmatli bir yil, ayni damda o'z so'zini aytadi. Auditoriyaga kirishimiz bilan o'sha "eski odat" yana boshlandi. "Cho'kayotgan odam xasga yopisharmish." Biz ham bedor o'tkazib ilm olgan tunlarimizga emas, aynan, o'zimiz bilan olib kirgan "maydachuyda najotkorlarga" umid bog'lab turibmiz. Tahlikali fursatlar yaqinlashmoqda. Go'yoki og'ir gunoh qilganmiz-u, kuzatuvchi test savollarini emas, hukm qog'ozini o'qib eshittiradigandek. Ana, tadbirimizning badiiy qismi ham boshlandi. Bir necha holis ishtirokchilar guvohligida konvertlar ochildi. Vaqtimiz chegaralanganiga qaramay, ko'ngilli yoshlar "sharofati bilan" adabiyotimizning turli davrlarida yashab o'tgan shoirlarimiz ijodidan bahramand bo'ldik. Nihoyat savol varaqalari tarqatildi. Unga ko'z yugurtirar ekanman, qaynoq yoz jaziramasini bo'lishiga qaramay, oyog'imgacha muzlab ketdim. Nega deysizmi? Sababi mingta. Birinchidan, hamma bahona hisoblasa-da, ayni damda oyog'imning muzlashiga sabab bo'lgan - hayajon, ikkinchidan, tashqarida farzandining istiqboliga katta umid bog'lab turgan ota-ona va yaqinlarimning ishonchini oqlashdek - ma'suliyat, uchinchidan, "qo'shimcha imkoniyatlardan" foydalanishga yo'l qo'ymaydigan - ilojsizlik.

Birgina men emas, e'tibor berib qarasam atrofimdagilarning deyarli hammasida shu hol. Faqatgina orqa qatorda o'tirganlarning og'zi qulog'ida. Har holda ovloqroq joy. Shunga qaramay, burgutning nigohidek o'tkir ko'zli kuzatuvchi o'z o'ljasini nishonga olgan ovchi qush singari orqa partaga yo'l oldi. Hammamiz qalqib tushdik. "Kemaga tushganning joni bir." Ammo har kimga o'z joni shirin. Fursatdan foydalanish vaqti keldi. Sekin cho'ntagimga qo'l suqdim. Shu payt yerdan chiqtimi, osmondan paydo bo'ldimi, orqa tarafga o'tib ketgan "ovchi qush" uzun tirnoqli panjalari bilan bilagimdan mahkam siqqancha turardi. "Noumid shayton," men ham mo'ltirab qarab turaverdim. Har tugul rahmi keldi

shekilli qo'limdagini olib, sinovni davom ettirishimga ruxsat berdi. Vaqt oz qoldi. Shoshilish kerak.

Ayni fursatlarda auditoriyadagi shovqin-suron o'zi to'zg'ib yotgan hayollarimni har tarafga sochib yubordi. Orqa partada o'tirganlardan biri yig'lay boshlashi bilan, yonimda turgan qizning chinqirgan ovozi eshitilib qoldi. Bularga nima bo'lgan o'zi? Shunday deyman-u bo'g'zimga tiqilgan achchiq yoshlarimni zo'rg'a ushlab turibman. Chunki ularni yaxshi kunda to'kishga qaror qilganim yodimda. Old qatorda o'tirgan bola, hali vaqt tugamay turib qo'lidagi varaqalarini topshirib chiqib ketdi. Men esa hali topshiriqning yarmini ham bajarib ulgurmagan edim. Shu sababli qulagan terakdek ko'nglim cho'kib ketdi. Terak-ku bir uyum o'tinga aylanar, men kirolmay qaytib borsam kim bo'laman? Kim bo'lardim! Yana o'sha eski abiturient-da. Xudo saqlasin! Eh, nima bo'lsa bo'lar deya barchasini belgilab, chiqib ketdim.

Imtihonlar tugagach ancha yengil tortaman deb o'ylagan edim. Adashgan ekanman. Hammasi shundan keyin boshlandi. O'n besh hun davomida sinov natijalarini kutish xuddi Arktika muzliklarining erishidek uzoq cho'zilgandek tuyuldi. Har tugul o'sha kun keldi. "Mandat" doskasiga yaqinlashar ekanman oldimda turganlarning menga yo'l berishlarini umuman xoxolamasdim. Juda uzoq kutdim. Kimdir yonimdan yig'lab o'tib borar, yana kimdir esa shodligidan o'zini osmonga otar edi. Yetti yot begona bir qiz esa meni bag'riga bosib olsa bo'ladimi!

Ana, mening raqamim. Ammo u chiziqlarning qaysi tarafida? Ko'zim ilg'amay qoldi. Topdim, topdim! Yo qudratingdan! Chiziqdan bitta tepada ekanman. Men o'qishga qabul qilindim. Mana o'sha sinov kuni asrab qo'ygan ko'z yoshlarim! Mana ular! Tabriklanglar! MEN ENDI TALABAMAN!

Maxsuma OQQO'ZIYEVA